

YO'L TRANSPORT HODISALARI STATISTIKASI

Soliev Dilshodjon Otajonovich, Farg'ona

viloyati, Furqat tumani Politexnikumining

„Yo'l harakati qoidalari va harakat xavfsizligi”

fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Yo'l harakati qoidalarini o'rganish, haydovchi, piyodalarni hatti harakatlari, yo'l belgilari, yo'l transport hodisalarini kelib chiqish sabablarini hamda uni oldini olish choralari haqida tushuncha beradi.

Kalit so'z: transport, yo'l, haydovchi, temir yo'l, moped, velosipedchi, asosiy yo'l, aholi punkti, ajratuvchi mintaqa, qoida, piyodalar.

O'zbekistonda 2024-yilda har uchinchi YTH yuk va yo'lovchi transporti ishtirokida sodir bo'ldi

2024-yilda O'zbekistonda 9364 ta YTH qayd etilgan bo'lib, shundan 3045 tasi (32,5%) yuk mashinalari va yo'lovchi tashuvchi transportlar ishtirokida sodir bo'ldi. YTHlarning deyarli yarmi Damas ishtirokida bo'lgan. 351 ta YTHda haydovchilar rulda uxlab qolgan, oqibatda 189 kishi halok bo'lgan.

2024-yil davomida O'zbekistonda 9364 ta yo'l-transport hodisasi rasman qayd etilgan bo'lib, shundan 3045 tasi (32,5 foiz) yuk va yo'lovchi tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari bilan bog'liq.

Yuk va yo'lovchi transporti ishtirokidagi YTHlarning umumiy sonidan:

- eng ko'p holatlar Damas mikrovenlari (jamoat transporti sifatida keng qo'llaniladi) ulushiga to'g'ri keldi — 1592 (52,3 foiz);

- yuk transportilari — 558 ta holat (18,3 foiz);
- avtobuslar — 137 ta holat (4,5 foiz);
- mikroavtobuslar — 29 ta holat (0,95 foiz).

Hisobotda alohida ta'kidlanishicha, 351 ta YTH (3,7 foiz) haydovchilar ish va dam olish rejimiga rioya qilmagani sababli rulda uxlab qolgani ortidan sodir bo'lgan. Bunday avariylar oqibatida 189 kishi halok bo'lgan, 285 kishi jarohat olgan.

Avtomobilni boshqarish paytida uxlab qolish dunyodagi yo'l-transport hodisalarining eng ko'p uchraydigan sabablaridan biridir. Haydovchilarga fojiali oqibatlarga yo'l qo'ymaslik uchun, ayniqsa, uzoq safarlarda dam olish tartibiga rioya qilish tavsiya etiladi.

Avvalroq o'tgan yili 9364 ta YTH oqibatida 8901 kishi jarohatlangani va 2203 kishi halok bo'lgani [xabar qilingandi](#). 2024-yilda jabrlangan va halok bo'lgan bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarga aniqlik kiritilmagan. 2023-yilda bolalar ishtirokida 1794 ta YTH sodir bo'lgan. Ularda 1568 nafar bola jarohatlangan va 263 nafar bola halok bo'lgan. 2022-yilda bunday ma'lumotlar to'liq e'lon qilinmagan, ammo o'sha yilning 10 oyida 226 nafar bola [vafot etgan](#). 25 iyun kuni Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi majlisida Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi xizmati, Transport, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirliklari hamda Bosh prokuratura va Hisob palatasi mas'ul rahbar xodimlarining yo'llarda xavfsizlikni ta'minlash va o'lim holatlarini kamaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha axboroti [eshitildi](#).

Qayd qilinishicha, yo'l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida 2023 yilda respublika bo'yicha qariyb 8 mingta obektda umumiy qiymati 13,5 trln so'mlik qurilish ishlari bajarilgan. Natijada, joriy yilning 5 oyi davomida yo'l-transport hodisalari soni 7,2 foizga, tan jarohati bilan bog'liq holatlar 8,7 foizga kamaygan.

Shu bilan birga, yoʻl-transport hodisalarining 57 foizi yoʻl infratuzilmasidagi kamchiliklar hamda 43 foizi haydovchi tomonidan yoʻl harakati qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida sodir etilgan. Hodisalarning 53,7 foizi piyoda va velosipedchilar bilan bogʻliq holatlar hissasiga toʻgʻri kelgan.

Taʼkidlanishicha, umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 9548 tasi transport qatnovi koʻp hududlarda joylashgan va aksariyat maktablar oldida piyodalar uchun yoʻlaklar mavjud emas, tegishli svetoforlar oʻrnatilmagan. Oqibatda joriy yilning 5 oyi davomida jami 359 nafar oʻquvchi bilan bogʻliq yoʻl-transport hodisasi sodir etilgan va 65 nafar oʻquvchi halok boʻlgan, 294 nafar oʻquvchi esa turli darajada tan jarohati olgan.

Yoʻllarda yoʻlovchilar xavfsizligini taʼminlash yuzasidan taʼsirchan nazorat toʻliq va samarali oʻrnatilmaganligi sababli 2023 yilda jami 16 milliondan ortiq qoidabuzarlik qayd etilgan.

Sodir etilgan 9839 ta yoʻl-transport hodisasi oqibatida 9209 nafar fuqaro jarohatlangan va 2282 nafar fuqaro halok boʻlgan.

2023 yilda bolalar bilan bogʻliq 1794 ta yoʻl-transport hodisasi sodir etilib, ularda 1 568 nafar bola jarohatlangan va 263 nafar bola halok boʻlgan. Oʻlim bilan bogʻliq yoʻl-transport hodisalarining salmogʻi Samarqand, Toshkent (80 tadan), Fargʻona (69 ta), Qashqadaryo va Surxondaryo (53 tadan) viloyatlarida hamon yuqori ekani qayd etilgan.

Muhokamadan soʻng Mudofaa va xavfsizlik masalalari qoʻmitasining ushbu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan aniq takliflari aks etgan qarori qabul qilingani taʼkidlanmoqda.

2024-yilda Oʻzbekistonda 2200 dan ortiq odam YTHda halok boʻldi

O'zbekistonda 2024-yilda 9364 ta YTH rasmiy ravishda ro'yxatga olingan bo'lib, ularda 8901 kishi jarohatlangan va 2203 kishi halok bo'lgan.

2024-yilda O'zbekistonda 9364 ta yo'l-transport hodisasi rasman qayd etildi

2023-yilga (9839 ta avariya) nisbatan 475 kishiga yoki 4,8 foizga kam deganidir. 2022-yilda baxtsiz hodisalar soni 9902 tani, 2021-yilda 10001 tani tashkil etgan.

Avariyalarda jabrlanganlar soni o'tgan yili 9209 nafardan 8901 nafarga (3,3 foizga kam) kamaygan. YTH oqibatida vafot etganlar ham 2203 kishiga (79 kishiga yoki 3,5 foizga) kamaydi.

2024-yilda jabrlangan va halok bo'lgan bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarga aniqlik kiritilmagan. 2023-yilda bolalar ishtirokida 1794 ta YTH sodir bo'lgan. Ularda **1568 nafar bola jarohatlangan va 263 nafar bola halok bo'lgan**. 2022-yil bo'yicha to'liq ma'lumotlar e'lon qilinmagan, ammo o'sha yilning 10 oyida 226 nafar bola **vafot etgan**.

Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qutbiddin Burxonov statistik ma'lumotlarni e'lon qilib, ushbu YTHlarning asosiy sabablarini fuqarolarning qonunchilikda belgilangan javobgarlikni mensimasligi, shuningdek, yo'l harakati qoidalarini bilmasligi deb atadi.

U yo'l-transport hodisalari sonining ko'payishiga ta'sir qiluvchi omillar qatorida amaldagi qonunchilikda yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun jazo muqarrarligini ta'minlaydigan ta'sirchan mexanizmlarning mavjud emasligini ham sanab o'tdi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Vazirlar Mahkamasining "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" 2000-yil 11-dekabrda 472-son **qarori** (O'zbekiston Respublikasi QT, 2000-y., 12-son, 75-modda).
2. Vazirlar Mahkamasining "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2006-yil 21-noyabrda 241-son **qarori** (O'zbekiston Respublikasi QT, 2006-y., 11-son, 87-modda).

3. Vazirlar Mahkamasining “Transport vositalari haydovchilari va yo‘lovchilari xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2007-yil 6-martdagi 44-son **qarori** (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2007-y